

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 538 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIVAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIY-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARININING INNOVATSION SALOHIVATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiql qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARINING O'RNI VA AHAMIVATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQL-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал кизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHLATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHIVATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQLA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIHLATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhlikova Komila Abdukhlikovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilhomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O'ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G'ayratjon Raximovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI	414
Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li	
OLIY IQTISODIY TA'LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR	418
Xasanova Zarina Maxamadaliyeva	
XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI.....	427
Narzullaev Oybek Narzullaevich	
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI.....	433
Axmedjanov Abdufato	
KENDALL VA SPEARMAN TARTIBIY KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT INDIKATORLARINING STATISTIK O'ZARO TA'SIRINI MODELLASHTIRISH	437
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
ИНТЕНСИВНЫЕ И ЭКСТЕНСИВНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ СПРОСА.....	442
Аминджанова Румейса Батыровна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД В ТУРИЗМЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И УЗБЕКСКАЯ ПРАКТИКА	445
Азимова Шахло Таировна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XAQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING HOLATI VA TAHLILI	450
Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich	
UZUM EKSPORT QILUVCHI KOMPANIYALARDA YASHIL O'TISH JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN EKO-MARKETING VA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI INTEGRATSIYALASH.....	454
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINING TAHLILI: OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNING YANGICHA USULLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	461
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	
INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	467
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	



FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA'MINLASH	470
Turdikulova Gulshad Nurmamatovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI.....	477
Uztemirov Alisher Aktam o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	482
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
XORIJ TAJRIBALARIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH TARTIBI METODOLOGIYASINING MAVJUD METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	489
Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	496
Ramatillaev M.R.	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SUG'URTALASH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	502
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASH VA KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	506
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
XALQARO REYTING TASHKILOTLARINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TA'SIRI VA MAVJUD PLATFORMALAR.....	515
O'rozboyev Xayrulla Murodboy o'g'li	
TALABALAR MOTIVATSIYASINING MEXANIZMLARI: LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDA.....	523
Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna	
ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRISH BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH	531
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich	



ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRARISH BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQRISH

Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich

prof., DSs., Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o'rinbosari

Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna

porf., PhD., Ijtimoiy sohani moliyalashtirishni tahlil
qilish va takomillashtirish loyihasi bo'lim boshlig'i

Absamatov Baxrom Danakulovich

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishni tahlil
qilish va takomillashtirish loyihasi bosh mutaxassisi
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish, norasmiy bandlikni kamaytirish, o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq sohasida qulayliklar yaratish, tadbirkorlikni raqamlashtirish va rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish yuzasidan tahlillar amalga oshirilgan hamda taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, rasmiy va norasmiy bandlik, yashirin iqtisodiyot, o'zini o'zi band qilishi, mehnatga layoqatli aholi, soyadan chiqarish.

Abstract. In the article, analyzes were carried out on reducing the share of informal employment and forming the balance of labor resources based on modern approaches, reducing informal employment, supporting self-employment by the state, creating conveniences in the tax field, creating additional jobs by digitizing and developing entrepreneurship, as well as suggestions and recommendations.

Key words: labor market, formal and informal employment, hidden economy, self-employment, working population.

Аннотация. В статье проведен анализ снижения доли неформальной занятости и формирования баланса трудовых ресурсов на основе современных подходов, сокращения неформальной занятости, государственной поддержки самозанятости, создания льгот в налоговой сфере, создания дополнительных рабочих мест за счет цифровизации и развития предпринимательства, а также даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: рынок труда, формальная и неформальная занятость, скрытая экономика, самозанятость, работающее население.

KIRISH

Mamlakatimizda norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish maqsadida norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha ta'sirchan yangi mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq sohasida qulayliklar yaratish, tadbirkorlikni raqamlashtirish va rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy bandlik tushunchasi ilk bor 1970-yillarda kiritilgan bo'lsa-da, uning ilmiy asoslari va ta'riflari turli iqtisodiy maktablar tomonidan rivojlantirilgan.



Keith Hart bu atamani birinchilardan bo'lib 1970-yillarda Afrika iqtisodiyotini o'rganish jarayonida kiritgan. Uning tadqiqotlari norasmiy sektorni "marginal" emas, balki iqtisodiy hayotning ajralmas qismi sifatida talqin qilishga asos yaratgan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT – ILO) norasmiy iqtisodiyotni o'rganish bo'yicha eng yirik xalqaro institutlardan biri hisoblanadi. XMTning "Decent Work" (Munosib mehnat) konsepsiyasi norasmiy bandlikni nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy himoya, mehnat huquqlari va ishtirok nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. XMT tadqiqotlariga ko'ra, norasmiy bandlarning 60 foizdan ortig'i ayollar bo'lib, ular eng zaif ijtimoiy qatlamni tashkil etadi.

Jahon banki va OECD tadqiqotlarida norasmiy sektor bilan "soyadagi iqtisodiyot" o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritilgan. Ularning tahlillarida norasmiylikning soliq bazasiga ta'siri, korrupsiya xavfi va raqobat muhitining nosog'lomlashuvi kabi makroiqtisodiy oqibatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Hernando de Soto esa norasmiy iqtisodiyotning ildiz sabablarini davlatning ortiqcha regulyatsiyasi, murakkab soliqlar tizimi va ro'yxatdan o'tishdagi ma'muriy to'siqlar bilan bog'laydi. Uning nazariyasiga ko'ra, bu omillar kichik tadbirkorlarni "soyaga" o'tishga majbur qiladi.

R. Gaidai va hamkorlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, norasmiy ishchilarni rasmiylashtirishdagi asosiy motivatsiya pensiya va tibbiy sug'urtaga ega bo'lishdir. Ular ijtimoiy sug'urtani soliqdan ajratish, soddalashtirilgan hamda ixtiyoriy to'lov tizimlarini joriy etishni samarali mexanizm sifatida tavsiya etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqoladagi empirik tahlil O'zbekiston uchun 2016-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi tizimli vaqt qatorlari ma'lumotlari to'plamiga asoslangan. Asosiy maqsad — mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish sur'atini oshirish, soyadagi bandlikni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish orqali budget tushumlarini kengaytirish va ijtimoiy himoyani yaxshilashdir. Tadqiqotda Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Ushbu izlanish doirasida mavjud mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, norasmiy bandlikni rasmiy iqtisodiyotga o'tkazishdan kutilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda norasmiy sektorda band bo'lganlar soni so'nggi yillarda ma'lum darajada kamaygan. Norasmiy bandlar ulushi 2018-yilda 58,3 foizdan 2024-yilda 47,6 foizgacha qisqargan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'yicha mehnatga layoqatli aholining 60 foizdan ortig'i yoki qariyb 2 milliard kishi norasmiy bandlikdan daromad oladi. Shunga qaramay, Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga binoan, mamlakatimizda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda¹.

Global integratsiyalashuv jarayonlarini inobatga olgan holda, norasmiy bandlikni aniqlashda ta'riflar moslashuvchan va turli ish turlarini qamrab oladigan tarzda bo'lishi zarur. Ijtimoiy himoyasiz norasmiy bandlarning malakasini tizimli oshirish, ularni ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb etish va himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, norasmiy ish beruvchilar reestrini yuritishni joriy etish hamda texnika xavfsizligi choralari kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, chet elda faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlarini pensiya tizimiga jalb etish ham dolzarb yo'nalishlardan biridir.

Soyadan chiqarish mexanizmlarini qo'llash natijasida kutiladigan budget tushumlari va xarajatlari hisoblab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish orqali mehnatga layoqatli aholining, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning barqaror va samarali bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish, fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish hamda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta'minlaganlarga imtiyozli kreditlar ajratish ham nazarda tutilgan.

Yaratilayotgan ish o'rinlarini hisobga olish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Yaratilgan yangi ish o'rinlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tegishli nizom qabul qilingan. Ushbu tartibga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari — yangi tashkil etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, ularning yollanma xodimlari, usta-hunarmamlarning shogirdlari, o'zini o'zi band qilgan fuqarolar va dehqon xo'jaliklari asosida tashkil etilgan ish o'rinlari — Davlat soliq qo'mitasining avtomatlashtirilgan dasturi orqali hisobga olinadi.

1 <https://global-workplace-law-and-policy.kluwerlawonline.com/2019/10/16/informal-employment-new-forms-of-work-and-enforcement-of-labour-rights/>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2025-yildagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son² qarorida hududlarda aholi bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish va daromadlarini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni keng joriy etish, mahallalarda ehtiyojmand aholi bilan manzilli ishlashni tashkil etish, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan samarali foydalanish orqali yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni kamaytirish maqsad qilingan. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq o'zini o'zi band qilgan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, tomorqa egalari, kasanachilar va hunarmandlar uchun bir qator imtiyoz va preferensiyalar belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash va ularni yashirin sektordan chiqarish maqsadida o'zini o'zi band qilish amaliyoti keng joriy etilmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, 2,8 milliondan ortiq fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan va o'z faoliyatini oshkoralik bilan davom ettirmoqda. Biroq aholini bandligini ta'minlashga oid imtiyozlarga qaramay, pensiya ta'minoti uchun ijtimoiy soliqni ixtiyoriy ravishda to'layotgan o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning ulushi jami 10 foizdan kamni tashkil etadi³.

Mehnat bozori an'anaviy bozorlar kabi talab va taklif asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, mehnat bozori tarkibini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarur. Mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash bu sohadagi strategik qarorlarni asoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat resurslari tarkibi bo'yicha tuzilgan 1-jadvalda 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda mehnat resurslarining o'zgarish dinamikasi aks etgan. So'nggi o'n yillik tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslari va mehnatga layoqatli aholi hajmi 20 foizga, iqtisodiy faol aholi esa 23 foizga oshgan. Shu bilan birga, ishsiz sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tganlar soni 15 foizdan ortiq kamaygan. Ushbu ko'rsatkichlar mehnat bozorida talab va taklif mexanizmlarining faol ishlayotganini, ya'ni iqtisodiyotdagi ishchi kuchi muvozanati shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, mehnat bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniqlashda aynan talab-taklif munosabatlarini, ishchi kuchi malakasini va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini tizimli ravishda baholash muhimdir (1-jadval).

1-jadval. Mehnat resurslarining tarkibi bo'yicha yillar kesimida o'zgarish dinamikasi⁴ ming.kishi

№	Turlari	2010y.	2015y.	2020y.	2024y.	2024-yilning 2010-yilga nisbatan o'zgarishi %
1	Mehnat resurslari	16 726,0	18 276,1	19 158,2	19 997,3	119,6
2	Mehnatga layoqatli aholi	16 726,0	18 276,1	19 158,2	19 997,3	119,6
3	Iqtisodiy faol aholi	12 286,6	13 767,7	14 797,4	15 096,4	122,9
4	Iqtisodiyotda bandlar	11 628,4	13 058,3	13 236,4	14 260,0	122,6
5	Rasmiy ravishda ro'yhatga olingan ishsizlar soni	16,2	2,7	37,1	13,7	84,8

Respublika miqyosida norasmiy band bo'lgan mehnat resurslarini tarmoqlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yetakchilik qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi o'rinlarda boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, ulgurji va chakana savdo, qurilish, ishlab chiqarilayotgan sanoat va boshqalar tashkil qiladi. Yillar davomida norasmiy bandlar soni qisqarish tendensiyasiga ega bo'lib, faqatgina qurilish sohasida o'sish kuzatilgan (2-jadval; 1-rasm).

2-jadval. Norasmiy bandlikning xalq xo'jaligi tarmoqlari kesimida o'zgarish dinamikasi⁵ ming.kishi

Tarmoq nomi	2018y.	2021y.	2024y.
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2474,2	2720,8	2227,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2,0	2,1	1,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	840,4	843,7	749,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	0,0	1,0	1,0
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	6,7	7,5	5,5

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7327821>

3 "O'zini o'zi band qilish faoliyatini amalga oshirish yo'nalishidagi mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlili" T-2024 y, 3 b

4 <https://stat.uz/uz/-sayti> ma'lumotlari.

5 Milliy statistika qo'mita ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Tarmoq nomi	2018y.	2021y.	2024y.
Qurilish	981,3	997,1	1052,2
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1022,4	1060,4	920,4
Tashish va saqlash	432,4	459,0	398,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	213,8	236,2	206,4
Axborot va aloqa	16,1	11,8	9,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	0,0	0,2	0,2
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	24,4	20,3	15,6
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	15,9	0,0	0,0
Ta'lim	85,0	88,6	78,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	155,1	132,6	117,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	30,4	28,1	22,8
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1464,5	1072,7	984,8
jami	7764,6	7682,1	6790,6



1-rasm. O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha norasmiy mehnat bilan band bo'lgan aholi soni (ming kishi)⁶

Norasmiy mehnat bilan band bo'lgan aholini legallashtirishdan olinishi mumkin bo'lgan o'rtacha bir oylik (yillik) daromadni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1-ssenariyda yillar kesimida o'rtacha oylik ish haqini norasmiy band bo'lganlarga ko'paytirish orqali hisoblanishi mumkin bo'lgan o'rtacha bir oylik ish haqini aniqlash mumkin. Ushbu summa 2018-yilda 11 977,7 mlrd so'mni, 2021-yilda 20 449,8 mlrd so'mni va 2024-yilda 29 886,6 mlrd so'mni tashkil qilgan. Endi bu summadan soliq hisoblanganda, 2024-yilda 3 586,4 mlrd so'm daromad solig'i hamda ma'lum sohalarga berilgan imtiyozlar va norasmiy migrantlar hisobga olinmagan holatda 3 586,4 mlrd so'm pensiya jamg'armasiga ijtimoiy soliq sifatida ajratilishi mumkin bo'lgan.

2-ssenariyda esa eng kam ish haqiga nisbatan oladigan bo'lsak, 2018-yilda 3 897,5 mlrd so'm, 2021-yilda 5 740,8 mlrd so'm va 2024-yilda 7 843,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2024-yilda hisoblangan eng kam ish haqidan bir oylik daromad solig'i 941,2 mlrd so'mni va shuncha miqdorda ijtimoiy soliqni tashkil qilishi mumkin bo'lgan (3-jadval).

⁶ Manba: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



3-jadval

Norasmiy mehnat bilan band boʻlgan aholini legallashtirishdan olinishi mumkin boʻlgan oʻrtacha bir oylik, yillik daromad ⁷									
Norasmiy mehnat bilan band boʻlgan aholining legallashtirish turlari	2018y.			2021y.			2024y.		
	ming kishi	soʻm	mlrd. soʻm	ming kishi	soʻm	mlrd. soʻm	ming kishi	soʻm	mlrd. soʻm
1-ssenariy									
Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha norasmiy mehnat bilan band boʻlgan aholini legallashtirishdan olinishi mumkin boʻlgan oʻrtacha bir oylik ish haqi	7 764,6	1 542 598	11 977,7	7 682,1	2 662 003	20 449,8	6 790,6	4 401 168	29 886,6
2-ssenariy									
Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha norasmiy mehnat bilan band boʻlgan aholini legallashtirishdan olinishi mumkin boʻlgan bir oylik eng kam ish haqi	7 764,6	501 959,5	3 897,5	7 682,1	747 300	5 740,8	6 790,6	1 155 000	7 843,1
3-ssenariy									
Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha norasmiy mehnat bilan band boʻlgan aholi oʻzini-oʻzi band qilish orqali byudjetga toʻlovi (yillik ijtimoiy soliq) bazaviy hisoblash miqdori	7 764,6	184 300	1 431,0	7 682,1	245 000	1 882,1	6 790,6	375 000	2 546,5

3-ssenariy: Yakka tartibdagi tadbirkorlar va oʻzini oʻzi band qilish hisobiga esa 2024-yilda 6 790,6 ming kishi bazaviy hisoblash miqdori — 375,0 ming soʻmdan yillik ijtimoiy soliq toʻlagan taqdirda 2 546,5 mlrd soʻm yillik hisobda ijtimoiy soliq toʻlagan boʻlgan boʻlardir.

Oʻzini oʻzi band qilish tartibining joriy etilishi natijasida ishlab turgan tadbirkorlarning oʻz faoliyatini toʻxtatib, oʻzini oʻzi band qilgan (OʻOʻBQ) sifatida qayta roʻyxatdan oʻtish holati kuzatilgan. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yakka tartibdagi tadbirkor (YATT) toifasidan oʻzini oʻzi band qilish toifasiga oʻtgan shaxslar haqidagi maʼlumotlar 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval) ⁸.

7 Manba: Muallif tomonidan Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tayyorlandi <https://stat.uz/>
8 "Oʻzini oʻzi band qilish faoliyatini amalga oshirish yoʻnalishidagi mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlili". T - 2024 y, 10 b

4-jadval. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda YATT toifasidan oʻzini oʻzi band qilish toifasiga oʻtgan shaxslar haqida maʼlumot⁹

Faoliyat turi	Navoiy viloyati		Toshkent sh. (Chilonzor tumani)	
	Faoliyatini toʻxtatgan YATTlar soni	OʻOʻBQ sifatida qayta roʻyxatdan oʻtgan YATTlar soni	Faoliyatini toʻxtatgan YATTlar soni	OʻOʻBQ sifatida qayta roʻyxatdan oʻtgan YATTlar soni
Yoʻlovchilarni yengil avtotransport vositalarida tashish	73	60 (82%)	35	25 (71%)
Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga oʻxshash boshqa xizmatlar	38	30 (79%)	79	13 (17%)
Milliy non va patir tayyorlash va sotish	45	22 (49%)	13	4 (31%)
Tikuv, moʻyna, charm va trikotaj buyumlarni va h k	61	28 (46%)	-	-

Navoiy viloyatida 2024-yilning may holatida 8 247 ta faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkor mavjud boʻlsa, 2021–2024-yillar davomida 1 598 nafar (16,2 foiz) yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini vaqtincha toʻxtatib yoki tugatib, oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida qayta roʻyxatdan oʻtgan va oʻz faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Mehnat faoliyatini rasmiy olib borish bilan ishchi bir qator imtiyozlarga ega boʻladi. Xususan, ijtimoiy himoyalanganlik, ish stajiga ega boʻlish, mehnat sharoitlarining kafolatlanganligi va boshqa ijtimoiy imkoniyatlar taʼminlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Norasmiy bandlikni qisqartirish va ish bilan bandlikni rasmiylashtirish boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatadiki, bu jarayon iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va avlodlar oʻrtasida teng imkoniyatlar yaratishda muhim imkoniyatlarga ega. Hisobot maʼlumotlariga koʻra, norasmiy ishchilarning mehnat huquqlarini himoyalash, taʼlim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy himoya tizimlariga jalb etish orqali ularning hayot sifati bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda.

Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimlari kuchaytirilishi natijasida mehnat bozori segmentlari oʻrtasidagi tafovutlar kamayadi va barqaror bandlik muhitini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo boʻladi. Bu jarayon qashshoqlikni kamaytirish, norasmiy mehnatni rasmiy sektorga oʻtkazish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Norasmiy mehnat faoliyati bilan shugʻullanayotgan shaxslar uchun istiqbolli yoʻnalishlar quyidagicha koʻrinadi:

Taʼlim va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali yangi kasbiy imkoniyatlar ochiladi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi. Kasbiy tayyorgarlik va qayta oʻqitish dasturlarini kengaytirish natijasida ishchilar zamonaviy kasblarni egallash imkoniyatiga ega boʻladi. Amaliy koʻnikmalarni tan olish tizimining joriy etilishi ularning malakasini rasmiy eʼtirof etish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya mexanizmlarining kengayishi esa ishchilarning farovonligini taʼminlash bilan birga, ularni faol iqtisodiy ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Moliyaviy jihatdan barqaror norasmiy ishchilar uchun esa rasmiylashtirish jarayonini ragʻbatlantirish, soliqlarda imtiyozlar berish va ijtimoiy sugʻurta tizimlarini kengaytirish orqali ular uchun yanada jozibador sharoit yaratiladi. Ish beruvchilar bilan mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish esa oʻzaro ishonchni mustahkamlab, iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshiradi.

Prognoz sifatida aytish mumkinki, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bu chora-tadbirlar natijasida mehnat bozorining rasmiy sektori kengayadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi va inson kapitaliga yoʻnaltirilgan investitsiyalar natijasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligi yanada ortadi.

9 Manba: “Oʻzini oʻzi band qilish faoliyatini amalga oshirish yoʻnalishidagi mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlili”. T - 2024 y, 10 b.



Takliflar:

1. Norasmiy bandlikni tavsiflashda turli mamlakatlar uchun mos keladigan, egiluvchan va har xil ish turlarini qamrab oladigan ta'rifni qo'llash (Filippin, Mo'g'uliston tajribasi).
2. Ta'lim va ko'nikmalari past bo'lgan norasmiy bandlar (shu jumladan mehnat bozoriga endigina kirayotganlar)ni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatadigan ixtisoslashgan o'quv markazlarini respublika miqyosida tashkil etish orqali malakasini oshirish.
3. Norasmiy bandlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish. Ushbu yondashuv orqali ijtimoiy himoyasi past darajadagi norasmiy bandlarning jamiyatdagi himoyasini kuchaytirish mumkin, chunki mamlakatimizda bu yo'nalishda hali yetarlicha e'tibor berilmagan.
4. Norasmiy ish beruvchilar reyestrini yuritish tajribasini joriy etish. Bu orqali, hatto norasmiy mehnat holatida ham, texnika xavfsizligi choralariga rioya qilinishini tartibga solish imkoniyati yaratiladi.
5. Chet elda mehnat faoliyatini olib borayotgan migrantlarni pensiya tizimiga jalb etish mexanizmini yaratish. Mamlakatimizda mehnat muhojirlari soni 1 million 300 ming kishidan ortiq bo'lishiga qaramay, ularning ish stajini hisobga olish tizimi hozircha mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global Workplace Law & Policy <https://global-workplace-law-and-policy.kluwerlawonline.com/2019/10/16/informal-employment-new-forms-of-work-and-enforcement-of-labour-rights/>
2. Breaking the Vicious Circles of Informal Employment and Low-Paying Work https://www.oecd.org/en/publications/breaking-the-vicious-circles-of-informal-employment-and-low-paying-work_f95c5a74-en.html <https://www.rbc.ru/economics/>
3. Defining and Measuring Informal Employment and the Informal Sector in the Philippines, Mongolia <https://www.unescap.org/sites/default/files/Working-paper-no3.pdf>
4. James Heintz БМТнинг ривожланиш лойиҳаси консултантлари берган шарҳлар.
5. Национальный добровольный обзор достижения Цели устойчивого развития в Кыргызской Республики https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/26372VNR_2020_Kyrgyzstan_Report_Russian.pdf
6. <https://lex.uz/docs/6179326>
7. Informal Employment, New Forms of Work and Enforcement of Labour Rights <https://global-workplace-law-and-policy.kluwerlawonline.com/2019/10/16/informal-employment-new-forms-of-work-and-enforcement-of-labour-rights/>
8. "Ўзини ўзи банд қилиш фаолиятини амалга ошириш йўналишидаги мавжуд имкониятлар ва муаммолар таҳлили" Т-2024
9. Maxkamova, Sh. pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish / Sh. Maxkamova, B. Absamatov, A. Mamanov // Iqtisodiyot: Tahlillar va Prognozlar. – 2024. – No. 4(28). – P. 136-142. – EDN AJWNPW.
10. Mamanov, A. Oliy ta'lim muassasalari uchun tabaqalashtirilgan ta'lim grantlarini ajratish tizimini tashkil etish / A. Mamanov, B. Absamatov, Sh. Dushamova // Iqtisodiyot: Tahlillar va Prognozlar. – 2024. – No. 2(26). – P. 87-94. – EDN FNMVIN.
11. Махкамова, Ш. Социальная стратификация общества / Ш. Махкамова // Общество и экономика. – 2014. – № 6. – С. 70-96. – EDN SUJCOL.
12. Шахло, М. Социально-экономический потенциал молодежи Узбекистана / М. Шахло // Общество и экономика. – 2013. – № 11-12. – С. 228-231. – EDN RYYPBX.
13. <https://lex.uz/docs/6179326>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>